

## REZYUME

Gulyamov Said Saidahrrovich, yuridik fanlar doktori, professor, fundamental asarlari va konseptsiyalari bilan O'zbekiston va xalqaro huquqiy fan rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan o'zbek huquqshunosligining yetuk olimidir.

Investitsiya huquqi sohasida u chet el investitsiyalarini jalb qilish va himoyalash bo'yicha yaxlit nazariya ishlab chiqqan, bu O'zbekistonning zamonaviy investitsiya qonunchiligi asosini tashkil etgan. Korporativ huquq sohasida O'zbekistonda yangi fan sifatida ushbu institutning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirgan. Korporativ boshqaruv haqidagi doktrinal modeli o'nlab MDH mamlakatlarining korporativ qonunchilik rivojiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Professor S. Gulyamovning kiberhuquq, sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik kabi prinsipial yangi murakkab huquq sohasining asoschisi bo'lib shakllantirishdagi hissasi kattadir.

2018-yildan buyon Ilmiy seminar va Ixtisoslashtirilgan Kengash raisi lavozimida faoliyat olib borib, Kengashlar ishiga korrupsiyaga qarshi va plagiatchi qarshi tizimni joriy qilgan holda, dissertatsiyalarga ilmiy rahbarlik qilish, uni yozish va taqrizlashning o'ziga xos uslublarini yaratgan. Amaliyotchi sifatida yuridik firmalar ishini optimallashtirish va kiberxavfsizlikni oshirish maqsadida 5 ta innovatsion dasturiy mahsulot ishlab chiqqan, ular xalqaro patentlarga ega bo'lib, yuridik firmalarga bir qancha litsenziyalar sotilgan.

2000-yildan buyon o'zining akademik faoliyati davomida professor S. Gulyamov ikkita nufuzli ilmiy maktabni – 2003-yilda Korporativ huquq va 2019-yilda Kiberhuquq maktabini tashkil etgan. Uning rahbarligida yuzlab bakalavr va magistr, shuningdek 16 ta nomzodlik va 6 ta doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. U o'zining 250 dan ortiq ilmiy ishlarini jumladan, Web of Science va Scopus maqolalarini jahonning yetakchi nashrlarida chop ettirgan.

Said Gulyamov faol ilmiy-tashkiliy ish olib boradi, xalqaro tashkilotlar va qonun ijodkorlik komissiyalarining xalqaro arbitri va eksperti hisoblanadi, Fanlar akademiyasi yosh olimlar kengashi raisi, uchta ilmiy jurnal bosh muharriri bo'lib, ulardan ikkitasi OAK ro'yxatidan o'tgan, 8 ta jurnal tahririyat a'zosi bo'lib, ulardan 5 tasi Web of Science va Scopusda ro'yxatga olingan.

Professor S. Gulyamov TDYUda noyob Kiberhuquq kafedrasini tashkil etishda ajoyib ishni amalga oshirdi – konseptsiyani ishlab chiqdi, jamoasi bilan 25 dan ortiq o'ziga xos mualliflik kurslarining o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqqan, ularni video va uslubiy materiallar bilan ta'minlagan. Kafedra ta'limga yondashuvni tubdan o'zgartirdi – hozir talabalar seminarlarda ilmiy maqolalar yozib, huquqiy yozuv va tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantiradilar.

Yuqoridagilar Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo (akademik)likka nomzodning fan sohasi rivojiga qo'shgan shaxsiy ilmiy yutuq va dunyo ahamiyatiga molik natijalari hamda huquqiy tizimni ilmiy-tashkiliy faoliyatdagi hissasini yaqqol ko'rsatadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Nizomining 51-bandiga asosan, Toshkent davlat yuridik universiteti "Kiberhuquq" kafedrasini mudiri, yuridik fanlari doktori, professor Gulyamov Said Saidahrrovichni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo (akademik)likka nomzod qilib ko'rsatadi.